

## AYOLLARNING JAMIYATDAGI O'RNI

Muallif: Xalilova Durдона Erkin qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Email: durdonaxalilova879@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ayollarning jamiyatdagi o'rni, ularning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotdagi faoliyati tahlil qilinadi. Maqolada ayollarning oila va jamiyatdagi roli, ayollarga nisbatan hurmat, tenglik va eng asosiysi e'tibor masalalarini keng yoritib, jamiyatda ularning faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi. Ayollarning hayotning turli sohalarda oila, ta'lim, ish hamda siyosatda tutgan o'rni haqida fikrlar bayon etiladi. Maqolada onalik, farzand tarbiyasi, oilaviy totuvlik va jamiyatdagi ayolning beqiyos hissasi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Ayol, jamiyat, oila, gender tenglik, mo'jiza.

Kirish qism:

Ayol — bu hayot go'zalligi, jamiyat tayanchi, oilaning yuragi va kelajak avlodni tarbiyalovchi buyuk zotdir. Jamiyat taraqqiyoti, farovonligi va madaniy darajasi undagi ayollarning sa'y-harakatlari bilan chambarchas bog'liq. Ayollarga hurmati baland bo'lgan mamlakat yuksak madaniyatli, bunyodkor va baxtli bo'ladi. Chunki ayollarga ishonchning o'zi kifoya — ular nafaqat oila, balki jamiyat hayotini rivojlantiruvchi yetakchi kuchga aylanishadi.

Ayollarimiz fidoyi ona, mehribon opa-singil, sadoqatli umr yo'ldoshdir. Ular o'z sabri, aqli va mehr-muhabbati bilan insoniyatni hayotga chorlaydi. Ayniqsa, yosh avlodni Vatanga muhabbatli, or-nomusli qilib tarbiyalaydi. Yurtimizda ayollarga bo'lgan e'tibor tobora mustahkamlanib bormoqda. Bugun ayollar siyosat, ta'lim, tibbiyot, iqtisod va boshqa ko'plab sohalarda faol ishtirok etmoqda. Ayollarni qo'llab-quvvatlash, har bir sohadagi huquqlarini kafolatlash maqsadida turli qonunlar qabul qilingan. Bu islohotlar natijasida ko'plab ayollar tadbirkorlik bilan shug'ullanib, o'z oilasini hamda jamiyatni rivojlantirishga hissa qo'shmoqda.

Asosiy qism:

Bugungi kunda bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan gender tenglik (ayol va erkaklarning teng huquqliligi) tamoyili bizning yurtimizda ham o'z aksini topmoqda. Shukrlar bo'lsinki, O'zbekistonda xotin-qizlarning ta'lim olishi va ishlashiga hech qanday to'siqlar yo'q.

Masalan, 2021-yilda 2 ming nafar ehtiyojmand oila qizlari qo'shimcha grant asosida talabalikka qabul qilindi. O'zbekiston Gender tenglik ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnasha boshladi va shu yili 62-o'rinni egalladi.

Ayol ham o'qishi, zamonaviy bilimlarni egallashi, mustaqil fikrini qo'rqmasdan ayta olishi kerak. Hatto Islom dinida ham ayollarning ilm olishlariga hech qanday taqiq qo'yilmagan. Ayol bu "mo'jiza". Nahotki shu mo'jizaning kichik jussasiga shunchalik ko'p mas'uliyat yuklansa!

Oila, farzand, ro'zg'or, uy yumushlari bilan bir qatorda ayol jamiyatda ham faol bo'lishga harakat qiladi. Kelajak avlodni tarbiyalash uchun o'z fikri va ilmi bo'lgan ayol hech qachon yengilmaydi. Aqlli ayol oilani ham, ilmni ham, ishni ham muvozanatda ushlab, yuksak marralarni zabt etadi.

Quyidagi ma'lumotlar ayollarning jamiyatdagi faol rolini yanada yoritadi:

— Ayollar erkaklarga qaraganda 3 barobar ko'proq so'z ishlatadi: kuniga ayollar o'rtacha 20 000 ta, erkaklar esa 7000 ta so'zdan foydalanadi.

— Ayollarning xotirasi kuchliroq bo'lib, ular tafsilotlarni 20–30% tezroq eslab qoladi.

— Dunyo bo'yicha ta'lim sohasida ishlovchilarning 70% ni ayollar tashkil etadi.

— Dunyodagi o'qimishli qatlamning 52% ini ayollar tashkil qiladi.

— Dunyo mamlakatlarining 50 dan ortig'ida davlat rahbarlari ayollar hisoblanadi.

Xulosa

Ayolni qadrlagan jamiyat hech qachon tanazzulga yuz tutmaydi. Chunki ayol — oila yuragi, taraqqiyot timsoli, millatning faxridir. Ayollarning jamiyatdagi o‘rnini yuksaltirish, ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, bilim va salohiyatini qadrlash — barchamizning muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “Adolat”, 2022.
2. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2019.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.
5. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 1983.
6. To‘raeva M. Ayollar sotsiologiyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
7. Rasulova Z. Oila va jamiyatda ayolning o‘rni. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018.

Ilovalar

1. <https://til.vaqf.uz> – O‘zbek tili onlayn platformasi.
2. <https://learn.uzbekworld.com> – Chet elliklar uchun o‘zbek tili kursi.
3. <https://duolingo.com> – Til o‘rganish ilovasi.
4. <https://stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti.
5. <https://gender.stat.uz> – Gender tenglik statistikasi portali.